

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI**A'zamov Valixon Fayzullayevich***Toshkent Hidrometeorologiya texnikumida maxsus fan o'qituvchisi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot texnologiyalari haqida shuningdek uning hozirgi ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, axborot texnologiyasi, internet, axborot-kommunikatsiya, taraqqiyot, metodika, innovatsiya.*

Hozirgi davrda ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, mana shu sababli barchamiz «yangi pedagogik texnologiyalar» atamasini ishlata boshladik. Bir misol, shaxsiy kompyuter ta'limning imkoniyatlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Internet leptoplar ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta'lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lim va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog'liq.

Ma'lumki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mikroelektronika, hisoblash texnikasi (apparatli vositalar va dasturiy ta'minotlar), elektroaloqa va antoelektronika-mikroprosessorlar, yarim o'tkazgichlar va optik-tolali kabellar sohalaridagi kashfiyotlar bilan bog'liq.

XXI- asr "Axborot texnologiyalari asri"da taraqqiyot jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Globallashuv davrida fan, texnika va axborot kommunikatsiya sohalarini rivojlanishi natijasida yangi imkoniyatlar vujudga kelmoqda. Shuningdek, axborot kommunikatsiya sohasi taraqqiy topmagan davrdagi eskirgan pedagogik qo'llanmalardan voz kechib, hozirda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasidan foydalanib dars jarayonlari o'tkazish zamonamizning eng muhim talabi bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda hayotni axborot texnologiyalarisiz va Internetsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Axborot metodikasi, axborot kommunikatsiyasi va axborot texnologiyalari barkamol shaxsni rivojlantirish, g'oyaviy jihatdan inson ongini shakllantirishi, kasbiy jihatdan ta'lim pedagogikasini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda bugungi kun ya'ni "Axborot asri" zamonida axborotni olish, uzatish va tarqatishning hamda, axborot almashinishning qulay vositasi bu internetdir. Internetga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Natijada axborot-kommunikatsiyasi sohasida va axborot uzatish tizimidagi taraqqiyot ham jadallik bilan tezlashdi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi Respublikamiz rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Aynan shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy etish va rivojlantirish borasidagi siyosat olib borilmoqda. Shu jumladan, Oliy o'quv yurtlarida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanlarining o'qitilishi axborot kommunikatsiyasini rivojlantirish yo'lida soxa mutaxassislarini etishib chiqishlariga turtki bo'lmoqda. Axborot texnologiyalari fani ham Oliy o'quv yurtlarida boshqa

fanlarga ijobiy ta'sir etmoqda. Axborot texnologiyasi-bu obyekt, jarayon hodisalar holati haqidagi ma'lumotlarni bir ko'rinishdan ikkinchi, sifat jihatdan mutloq yangi ko'rinishga keltiruvchi to'plash, qayta ishlash, uzatishning vosita va usullari majmuasidan foydalanish jarayonidir. Shuning uchun ham ta'limda axborotkommunikatsiya texnologiyalarini dars jarayonlarida qo'llaganda talabalarning eshitish, ko'rish va g'oyaviy jihatdan ko'rganlari asosida fikr bildirish imkoniyati yanada oshmoqda. Hozirgi zamon metodikasida ta'lim jarayonlarini axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib darslarni interfaol usullarda o'tkazilishii dars sifatini yaxshilab, o'quvchining bilim salohiyatini oshishiga turtki bo'lmoqda.

Bizning fikrimizcha, mul'timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animasiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbiiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarisiz xordiq chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Multimedia vositalarining 81- yildagi yalpi oboroti 4 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa 94-yil esa 16 milliard AQSh dollarini tashkil qildi. Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir kompyuterni mul'timedia vositalarisiz tasavvur qilib bolmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim sohasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi avvalambor ular unumdorligining nihoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni kursatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumli va vaqtdan yutish mumkun. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayetgan materiallarni kurish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25- 30%oshadi. Bunga qushimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafikako'rinishda mujassamlashgan xolda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu kabi axborotkommunikatsiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lmaganjuda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tish imkon beradi:

1) Bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lim olish yo'lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta'lim kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga olib kelsa, axborotlar bilimlar to'plash jarayonining mazmunli jihatini ta'minlash uchun kerak b'ladi. Internet va «Butun jahon tarmog'i» barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo'lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Internet tarmog'i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko'plab global fuqarolik

tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta'lim tizimida qayta aloqani ta'minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog'liq sohalar hamda ta'lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar -saytlar ta'lim tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo'qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

Kompyuterlarni ta'lim tizimida qo'llash g'oyasi ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lgan bo'lsada, ta'lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini qo'llash multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar paydo bo'lgach to'liq ma'noda amaliyotga joriy etilib boshlandi. Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);
- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;
- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi subyekt sifatida qarash, uning qadrdimmatini tan olish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi;
- ta'lim oluvchilarda, o'zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ular bilan bog'liq bo'lgan sohalar rivoji ham ta'lim tizimida eng jadal rivojlangan sektorlar hisoblanadi. Shu jumladan elektron pochta kutubxonalar, kompyuter tarmoqlari va saytlar ta'lim tizimida cheksiz imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bugungi kunda fan hamda ta'lim tizimini rivojlantirish masalasida axborot texnologiyalari o'z o'rniga egadir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishganidan so'ng ta'lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lim hamda tarbiyaviy tizimga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tatbiq etilishi bilan bog'liq. Mustaqillikdan so'ng "Axborot va matbuot erkinligi, fuqarolarning o'z xohish-irodasini bildirishi davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi

Yangi O'zbekistonning sifat ko'rsatkichlaridan biriga aylanishi barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishda doril-amal bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «O'zbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'grisida»gi F-4947-sonli Farmoni.
2. S.S.G'ulomov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologivalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik / Akademik S.S. G'ulomovning unuimiy tahriri ostida. - T., «Sharq», 2000.
3. Tolipov U., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot. T. Fan, 2005. 205 b.
4. Yuldasheva, G. I. (2022). Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron darsliklardan foydalanish. Youth, Science, Education: Topical Issues, Achievements And Innovations,(5), 36-38
- 5.Малинина Л. А. Основы информационных технологий: учебник для Вузов. М. : Издательский дом «Феникс», 2012.